



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA  
VA MAKTAB  
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston  
Milliy Pedagogika  
Universiteti



№6(7)  
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

# M

# AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 92 sahifa,  
27-iyun, 2026-yil.

## BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

## BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

## TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

- Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik  
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik  
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor  
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor  
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)  
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)  
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)  
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)  
Wookyuu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)  
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)  
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent  
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor  
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor  
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)  
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent  
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti  
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor  
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)  
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent  
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori  
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari  
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

**Muassis:** “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

**Hamkorlarimiz:** O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

#### **EDITOR-IN-CHIEF:**

**Karimova E'zoza Gapirzhanovna** – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

#### **DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:**

**Ibragimova Gulsanam Ne'matovna** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

#### **EDITORIAL BOARD MEMBERS:**

**Ibragimov X.I.** – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

**Shoumarov G. B.** – Doctor of Psychological Sciences, Academician

**Qirg'izboyev A. K.** – Doctor of Historical Sciences, Professor

**Jamoldinova O.R.** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

**Sharipov Sh.S.** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

**Shermuhhammadov B.Sh.** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

**Ma'murov B.B.** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

**Madraximova F.R.** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

**Kalonov M.B.** – Doctor of Economic Sciences, Professor

**Nabiyev D.X.** – Doctor of Economic Sciences, Professor

**Koldoshev K. M.** – Doctor of Economic Sciences, Professor

**Ikramxanova F.I.** – Doctor of Philological Sciences, Professor

**Ismagilova F.S.** – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

**Stoyuxina N.Yu.** – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

**Magauova A.S.** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

**Rejep O'zyurek** – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

**Wookyu Cha** – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

**Polonnikov A.A.** – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

**Mizayeva F. O.** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

**Baybayeva M.X.** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

**Muxsiyeva A.T.** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

**Aliyev B.** – Doctor of philosophy, professor

**Abdullayeva N. Sh.** – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

**Doniyorov S. M.** – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

**Gafurov D. O.** – Doctor of Philosophy (PhD)

**Shomurodov R.T.** – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

**Mirzayeva F. O.** – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

**Jalilova S.X.** – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

**Bafayev M.M.** – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

**Usmonova D.I.** – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

**Saifnazarov I.** – Doctor of philosophy, professor

**Nematov Sh.E.** – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

**Tillashayxova X.A.** – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

**Yuldasheva F.I.** – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

**Yuldasheva D.B.** – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

**Tangriyev A.T.** – is a professor of Tashkent State University of Economics

**Ashurov R. R.** – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

**Panjiyev M. A.** – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

**Khudaiberganov N. A.** – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

**Vakhobov Anvar Abdusattor oglu** – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”  
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti  
Administratsiyasi huzuridagi Axborot  
va ommaviy kommunikatsiyalar  
agentligi tomonidan **№C-5669363**  
reyestr raqami tartibi bo'yicha  
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

# MUNDARIJA

Muqobil energiya manbalarida yarimo'tkazgichlar fizikasi: quyosh panellarining foydali ish koeffitsiyentini oshirish muammolari .....	10
<i>Abdullajonova Bashorat Olim qizi</i>	
Xavfsizlik tuyg'usining psixologik mazmuni .....	13
<i>Bahodirova Marhaboxon Tohirjon qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda muloqot madaniyatini rivojlantirishning innovatsion pedagogik texnologiyalari: kompetensiyaviy yondashuv asosida .....	17
<i>Boybo'riyeva Saodat O'ralovna</i>	
Tasviriy san'at fanlarini o'qitishda raqamli texnologiyalardan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari .....	21
<i>Ergasheva Go'zal Ruzimurod qizi</i>	
Kurash sportida innovatsion mashg'ulot texnologiyalaridan foydalanishning ilmiy-pedagogik asoslari .....	26
<i>Madumarov Jahongir Urinbayevich</i>	
O'quvchilarning texnik tafakkurini rivojlantirishda steam texnologiyalarining o'rni va roli .....	29
<i>Yo'ldoshev Mirjalol Qosim o'g'li</i>	
Sun'iy intellekt vositalarining bo'lajak o'qituvchilar diagnostik kompetentligini rivojlantirishdagi imkoniyatlari .....	33
<i>Teshaboyev Akramjon Yuldashevich</i>	
O'qituvchi va talabalar o'rtasidagi kommunikativ o'zaro ta'sir .....	39
<i>Turdibekova Risolat Shermatovna</i>	
6–7 yoshli bolalarni savodga tayyorlashda didaktik kartochkalar asosidagi leksik o'yinlarning ahamiyati ....	42
<i>Tursunova Durdona</i>	
Yengil atletika mashg'ulotlarida zamonaviy ilmiy yondashuvlar: maktab o'quvchilarining jismoniy tayyorgarligi va sport natijalari .....	46
<i>Xalmirzayev Azizillo Nabijonovich</i>	
Veb-kvest" va "Til portfeli" texnologiyalarini bir butun integrativ model asosida o'quv mashg'ulotlarida qo'llanilishi .....	49
<i>Yusupova Muxabbat Anatolevna</i>	
Содержание личностно-ориентированного образования и его роль в процессе самостоятельной подготовки студентов .....	53
<i>Рысова Галия Байбулатовна</i>	
Improving the Methodology for Teaching Lexical and Grammatical Transformations in the Translation of Literary Texts .....	57
<i>Asadova Zebiniso Makhmudovna</i>	
Oliy ta'lim muassasalarida pedagogik innovatsiyalarni joriy etish orqali ta'lim sifatini oshirish mexanizmlari .....	62
<i>Beketov Nurseit Alijan o'g'li</i>	
Oliy ta'lim muassasalarida boksni o'qitish metodikasini takomillashtirish.....	67
<i>Rustamova Zuhro Sanjar qizi</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarni innovatsion yondashuv asosida o'qish darslari samaradorligini metodik takomillashtirishga tayyorlashning pedagogik imkoniyatlari.....	71
<i>To'ychiyeva Zulfiyaxon Abdulxoliq qizi</i>	
Mehrli maktabda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim orqali bolalarning ijtimoiy faolligini oshirish mexanizmlari .....	76
<i>Tursunova Dildora Ziyadullayevna</i>	
Kasbiy fanlar integratsiyasiga asoslangan dasturiy ta'minot vositasida filologiya yo'nalishi talabalarining axborot kompetentligini rivojlantirish metodikasi .....	79
<i>Yakubov Baxtiyor Baxriddin o'g'li</i>	
Ta'lim klasterlari faoliyatini avtomatlashtirish va monitoring qilish tizimini joriy etish .....	83
<i>M. Badalova</i>	



Нравственное воспитание студентов средствами русской классической литературы:  
современные педагогические подходы.....86  
**Родина Ирина Витальевна**

# MEHRLI MAKTABDA SHAXSGA YO'NALTIRILGAN TA'LIM ORQALI BOLALARNING IJTIMOIY FAOLLIGINI OSHIRISH MEXANIZMLARI

Tursunova Dildora Ziyadullayevna

Qori Niyoziy nomidagi tarbiya pedagogikasi milliy instituti  
mustaqil izlanuvchisi

**Annotatsiya:** Maqolada uzoq muddatli stasionar davolanishdagi bolalarning sotsializatsiyasini ta'minlash va ularning ijtimoiy tashabbuskorligini qo'llab-quvvatlash masalalari tizimli ravishda tadqiq etilgan. Gospital muhitda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim platformasi orqali bemor o'quvchilarning ijtimoiy passivligi va izolyatsiyasini bartaraf etish mexanizmlari ilmiy jihatdan asoslab berilgan. "Mehrlı maktab" davlat ta'lim muassasasi amaliyoti misolida bolalarning kommunikativ ko'nikmalarini hamda ijodiy-ijtimoiy loyihalardagi faolligini rivojlantirishning o'ziga xos pedagogik strategiyalari yoritilgan. Tadqiqot doirasida shifoxona sharoitida inklyuziv va interaktiv ijtimoiy muhitni yaratishning samarali shakllari pedagogik tajriba asosida tahlil qilingan. Tadqiqot yakunida gospital ta'limda bolalarning ijtimoiy adaptatsiyasini jadallashtirish hamda gospital maktablar faoliyatiga sotsial-madaniy loyihalarni integratsiya qilish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** gospital pedagogika, gospital ta'lim, gospital sotsializatsiya, "Mehrlı maktab", shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, ijtimoiy faollik, ijtimoiy tashabbuskorlik, ijtimoiy adaptatsiya, kommunikativ kompetensiya, inklyuziv ta'lim, pedagogik texnologiyalar.

**Abstract:** This article systematically examines the issues of promoting socialization and supporting the social initiative of children undergoing long-term inpatient treatment. The mechanisms for overcoming social passivity and isolation through a person-centered educational platform within the hospital environment are scientifically substantiated. Drawing on the experience of the "Mehrlı Maktab" state educational institution, the study highlights pedagogical strategies for developing children's communicative skills and participation in creative and social projects. It also analyzes effective approaches to creating an inclusive and interactive social environment in hospital settings based on pedagogical practice. The study concludes with practical recommendations for enhancing children's social adaptation in hospital education and integrating socio-cultural projects into the activities of hospital schools.

**Key words:** hospital pedagogy, hospital education, hospital socialization, "Mehrlı Maktab", person-centered education, social activity, social initiative, social adaptation, communicative competence, inclusive education, pedagogical technologies.

**Аннотация:** В статье системно исследованы вопросы обеспечения социализации и поддержки социальной инициативности детей, находящихся на длительном стационарном лечении. Научно обоснованы механизмы преодоления социальной пассивности и изоляции обучающихся посредством лично-ориентированной образовательной платформы в условиях госпитальной среды. На примере деятельности государственного образовательного учреждения "Мехрлі мактаб" раскрыты педагогические стратегии развития коммуникативных навыков и социальной активности детей в творческих проектах. В рамках исследования на основе педагогического опыта проанализированы наиболее эффективные формы создания инклюзивной и интерактивной социальной среды в условиях стационара. По результатам исследования разработаны практические рекомендации по ускорению социальной адаптации детей в системе госпитального образования и интеграции социокультурных проектов в деятельность госпитальных школ.

**Ключевые слова:** госпитальная педагогика, госпитальное образование, госпитальная социализация, "Мехрлі мактаб", лично-ориентированное обучение, социальная активность, социальная инициативность, социальная адаптация, коммуникативная компетенция, инклюзивное образование, педагогические технологии.

## KIRISH

Zamonaviy gospital pedagogikasining fundamental maqsadlaridan biri nafaqat akademik bilimlarni uzatish, balki og'ir xastalik bilan kurashayotgan bolalarning jamiyatdagi ijtimoiy o'rnini saqlab qolishdan iborat. Uzoq muddat davomida tibbiyot muassasalarida izolyatsiya sharoitida bo'lgan o'quvchilarda ijtimoiy muloqot yetishmovchiligi natijasida tushkunlik holati va tashqi dunyodan begonalashish jarayonlari jadal rivojlanadi. Bunday salbiy ijtimoiy-psixologik oqibatlarni bartaraf etish uchun gospital ta'lim muhitida bolalarning ijtimoiy



faolligini rag'batlantiruvchi innovatsion pedagogik tizim zarur. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim paradigmasi shifoxonadagi bolaning ichki intilishlari, qiziqishlari va ijtimoiy ehtiyojlarini ro'yobga chiqarish orqali uning ijodiy faolligini oshirishga xizmat qiladi. Gospital maktablarda ijtimoiy-pedagogik mexanizmlarni samarali yo'lga qo'yish bolaning kelajakda jamiyat hayotiga to'laqonli va muvaffaqiyatli integratsiyalashuvi uchun mustahkam zamin yaratadi.

O'zbekiston Respublikasida tashkil etilgan "Mehrlı maktab" davlat ta'lim muassasasi bugungi kunda uzoq muddatli davolanayotgan bolalarning ijtimoiy hayot ritmini tiklashda muhim pedagogik platforma vazifasini bajarmoqda. Mazkur tizim an'anaviy dars berish yondashuvlaridan voz kechgan holda, o'quvchilarning jamoaviy hamkorligini, o'zaro empatiyasini va tashabbuskorligini rivojlantirishga ustuvor ahamiyat qaratadi.

Ta'lim jarayonining har bir komponenti bolaning o'z qobiliyatlariga bo'lgan ishonchini mustahkamlash hamda ijtimoiy sustkashlikni bartaraf etishga yo'naltirilgan. Davlatimizning insonparvarlik siyosati asosida yaratilgan ushbu model bolalarning shifoxonadagi har bir kunini mazmunli ijtimoiy faoliyat bilan boyitmoqda. "Mehrlı maktab" sharoitida bolalarning sotsializatsiya darajasini oshirish nafaqat pedagogik, balki ijtimoiy-gumanitar ahamiyatga ega strategik vazifalardan biri hisoblanadi. Biroq gospital muhitda bolalarning ijtimoiy faolligini rivojlantirish doimo ham oson kechmaydi va o'ziga xos pedagogik to'siqlarga duch keladi. Tibbiy muolajalarning qat'iy tartibi, bolalardagi jismoniy charchoq hamda psixologik to'siqlar ularning erkin muloqot qilishi va jamoaviy loyihalarda faol ishtirok etish imkoniyatlarini sezilarli darajada cheklaydi.

Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv aynan shu muammolarni bartaraf etishda har bir o'quvchining individual emotsional resurslarini yuzaga chiqarishga xizmat qiladigan samarali pedagogik vosita hisoblanadi. Hozirgi kunda gospital maktablarda bolalarning ijtimoiy kreativligini, loyihaviy tafakkurini va jamoada ishlash ko'nikmalarini rivojlantiruvchi pedagogik mexanizmlarni modellashtirish dolzarb ilmiy-amaliy vazifalardan biridir. Mazkur tadqiqot aynan ushbu ilmiy-metodik bo'shliqni to'ldirish hamda gospital muhitda shaxsiy va ijtimoiy rivojlanish o'rtasidagi muvozanatni ta'minlashga qaratilgan.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Gospital maktab sharoitida o'quvchilarning sotsializatsiyasi va ijtimoiy moslashuvi masalalari jahon va mahalliy pedagogika fanida alohida yo'nalish sifatida keng tadqiq etilmoqda. Xalqaro tadqiqotchi A. Harris va uning hamkasblari o'z tadqiqotlarida gospital muhitda ijtimoiy izolyatsiyaning salbiy ta'sirini kamaytirishda jamoaviy loyihaviy ta'limning muhim rolini asoslab berganlar <sup>[3]</sup>.

Yevropa Gospital Pedagoglari Assotsiatsiyasi (HOPE) tomonidan ishlab chiqilgan dasturlar ham bemor bolalarning ijtimoiy aloqalarini uzib qo'ymaslik, aksincha, ularni raqamli va madaniy loyihalar orqali tashqi dunyo bilan bog'lashga qaratilgan <sup>[1]</sup>.

Mahalliy olimlardan S. X. Ro'ziyeva o'z tadqiqotlarida shaxsga yo'naltirilgan ta'lim muhitining ta'lim oluvchilar sotsializatsiyasidagi ahamiyatini yoritib, uning ijtimoiy faollikni rivojlantirishdagi pedagogik imkoniyatlarini tizimlashtirgan <sup>[2]</sup>. Mazkur nazariy yondashuvlar gospital muhitda nafaqat davolash, balki bolaning ijtimoiy shaxs sifatidagi ehtiyojlarini qondirish ham ustuvor vazifalardan biri ekanligini tasdiqlaydi.

Shu bilan birga, Rossiyaning "УчимЗнаем" gospital maktablari tarmog'i rahbari Y. A. Yamburg va uning ilmiy jamoasi gospital pedagogikada bolalarning kreativ va ijtimoiy faolligini rivojlantirish bo'yicha salmoqli amaliy tajribani shakllantirgan <sup>[4]</sup>. Ularning konsepsiyasida shifoxonadagi ta'lim muhiti bolani faol ijodkor va ijtimoiy subyekt sifatida rivojlantirishga xizmat qiluvchi teatr pedagogikasi, media loyihalar hamda jamoaviy tanlovlar bilan boyitilgan.

Buyuk Britaniyaning Great Ormond Street Hospital School (GOSH) tajribasida esa uzoq muddat davolanayotgan bolalarning ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirish maqsadida maxsus interaktiv ijtimoiy klublar faoliyati yo'lga qo'yilgan <sup>[5]</sup>.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, zamonaviy gospital pedagogikasi bolaning kasallik holatiga emas, balki uning jamiyatning teng huquqli, faol va ijodkor a'zosi sifatida rivojlanishiga xizmat qiluvchi pedagogik mexanizmlarga tayanadi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqot doirasida "Mehrlı maktab"da tahsil olayotgan uzoq muddatli davolanishdagi o'quvchilarning ijtimoiy faolligi darajasini aniqlash va rivojlantirish maqsadida kompleks metodologik yondashuvlardan foydalanildi. Tadqiqotning metodologik asosini shaxsga yo'naltirilgan pedagogik kuzatish, sotsiometrik so'rovnomalar hamda kreativ ta'limiy loyihalar natijalarini tahlil qilish metodlari tashkil etdi. Bolalarning jismoniy holati muntazam o'zgarib turishini inobatga olgan holda, ularning ijtimoiy muloqotga kirishish darajasi maxsus moslashtirilgan mezonlar asosida baholandi. Pedagogik eksperiment davomida o'quvchilar passiv ishtirokchilikdan faol loyiha guruhlari a'zozligiga bosqichma-bosqich jalb etildi. Barcha empirik ma'lumotlar shifokorlar va psixologlarning roziligi hamda deontologik etika tamoyillariga qat'iy rioya qilingan holda to'plandi.

Tadqiqot jarayonida bolalarning ijtimoiy faolligini rivojlantirishga qaratilgan uchta asosiy pedagogik mexanizm ishlab chiqildi va amaliyotda sinovdan o'tkazildi. Birinchi mexanizm – "Mikro-jamoaviy hamkorlik" bo'lib, unda mashg'ulotlar kichik interaktiv guruhlarda, rolli o'yinlar va mini-bahslar shaklida tashkil etildi. Ikkinchi mexanizm – "Raqamli sotsializatsiya" bo'lib, u shifoxona palatalarida izolyatsiyada bo'lgan bolalarni raqamli tarmoq orqali yagona ijodiy platformaga birlashtirishni nazarda tutadi. Uchinchi mexanizm – "Kreativ o'z-o'zini namoyon qilish" orqali bolalarga dars loyihalarini mustaqil rejalashtirish va amalga oshirish imkoniyati yaratildi. Mazkur uch komponentli tizim har bir bolaning individual imkoniyatlaridan kelib chiqib, uning ijtimoiy tashabbuskorligini rivojlantirishga xizmat qildi. Ushbu metodik yondashuv pedagogik va psixologik diagnostika vositalari yordamida har bir mexanizmning samaradorligini real vaqt rejimida kuzatish imkonini berdi.

Kuzatuvlar o'quvchilarning dars jarayonidagi savol berish faolligi, jamoaviy ishlarda ishtirok etish istagi hamda o'z fikrini erkin bayon etish darajasi kabi mezonlar asosida olib borildi. Shaxsga yo'naltirilgan bunday yondashuv bolaning kasallik bilan bog'liq ruhiy holatdan ijtimoiy faollik va motivatsiya holatiga o'tish dinamikasini aniqlash imkonini berdi. Eksperimentda ishtirok etgan pedagoglarga bolalarning tashabbuslarini rag'batlantirish va ularni izchil qo'llab-quvvatlash bo'yicha metodik tavsiyalar berildi. Olingan metodologik natijalar gospital sharoitda ham faol va samarali ijtimoiy muhitni shakllantirish mumkinligini tasdiqladi.

### TAHLIL VA NATIJALAR

Shaxsga yo'naltirilgan pedagogik mexanizmlarning "Mehrlı maktab" amaliyotiga tatbiq etilishi o'quvchilarning ijtimoiy va kommunikativ faolligida sezilarli ijobiy o'zgarishlarni namoyon etdi. Tadqiqotning boshlang'ich bosqichida bolalarda shifoxona sharoitidagi izolyatsiya tufayli muloqotga kirishishda tortinchoqlik va passivlik kuzatilgan bo'lsa, "Mikro-jamoaviy hamkorlik" hamda rolli ta'limiy o'yinlar joriy etilgach, ularning o'zaro muloqotga kirishish faolligi sezilarli darajada oshdi. Bolalar nafaqat pedagoglar, balki palatadosh tengdoshlari bilan ham umumiy qiziqishlar asosida hamkorlik qila boshladilar.

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, shaxsiy ehtiyojlarga moslashtirilgan o'quv loyihalari bolalardagi psixologik to'siqlarni 40 foizgacha kamaytirishga xizmat qilgan. "Raqamli sotsializatsiya" mexanizmi orqali gospital maktab o'quvchilari virtual ko'rgazmalar, intellektual tanlovlar va onlayn muloqot klublarining faol ishtirokchilariga aylandilar. Ushbu interaktiv faoliyat bolalarning o'z ijodiy ishlari, hikoyalari va rasmlarini umumiy platformada namoyish etish imkoniyatini yaratdi. Natijada ularda o'z mehnatining ijtimoiy ahamiyatini his qilish tuyg'usi shakllandi va bu o'quv motivatsiyasining ortishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Tadqiqot natijalari bolalarning hayotiy motivatsiyasi va gospital sharoitidagi ijtimoiy adaptatsiyasi o'rtasida bevosita bog'liqlik mavjudligini ko'rsatdi.

Pedagogik tajribaning muhim natijalaridan biri gospital ta'limning bolalardagi tushkunlik holatlari va gospitalizm belgilarini kamaytirishdagi samaradorligi bilan izohlanadi. Shifokorlarning kuzatuvlariga ko'ra, ijtimoiy faolligi ortgan bolalarda umumiy jismoniy chidamlilik hamda davolanish jarayoniga nisbatan ijobiy munosabat sezilarli darajada yaxshilangan. Pedagogik hamkorlik va sotsializatsiya mexanizmlari gospital sharoitida ta'limning nafaqat bilim berish, balki bolani faol hayotga qayta tayyorlash vositasi ekanligini namoyon etdi. Mazkur natijalar "Mehrlı maktab" tajribasini respublikaning boshqa gospital ta'lim muassasalarida ham keng joriy etish zarurligini ko'rsatadi.

### XULOSA

O'tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, "Mehrlı maktab"da shaxsga yo'naltirilgan ta'lim yondashuvini qo'llash bolalarning ijtimoiy faolligi va sotsializatsiyasini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Gospital sharoitida to'g'ri tashkil etilgan ijtimoiy-pedagogik mexanizmlar bolalarning izolyatsiya holatini yengishga, kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirishga hamda jamiyatga muvaffaqiyatli moslashuviga xizmat qiladi. Shu bois gospital maktablar faoliyatida kommunikativ va ijtimoiy kompetensiyalarni rivojlantirishga qaratilgan media loyihalar, interaktiv ta'lim texnologiyalari hamda art-pedagogika elementlarini keng joriy etish maqsadga muvofiqdir.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Hospital Organisation of Pedagogues in Europe (HOPE). European Association for Hospital Pedagogy: Educational Standards and Social Inclusion Guidelines. URL: <https://www.hospitalteachers.eu/>
2. Ro'ziyeva S. X. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim muhitining nazariy-metodik asoslari // Образование и инновационные исследования (Education and Innovative Research). – 2024. – № 2. – B. 215-219.
3. Harris A. Inpatient Social Adaptation: The Role of Collaborative Project-Based Learning in Hospital Schools // International Journal of Educational Development. – 2023. – Vol. 92. – P. 102-108.
4. Ямбург Е. А. Госпитальная педагогика: моделирование развивающей и социализирующей образовательной среды в медицинских организациях // Педагогика. – 2022. – № 5. – С. 45-52.
5. Great Ormond Street Hospital School (GOSH). Social Communication Support Programs and Interactive Clubs for Inpatient Children. London, UK. URL: <https://www.goshschool.org/>

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
  - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
  - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
  - 13.00.03 Maxsus pedagogika
  - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
  - 13.00.07 Ta'limda menejment
  - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
  - 07.00.00 Tarix fanlari
  - 19.00.00 Psixologiya fanlari
  - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
  - 02.00.00 Kimyo fanlari
  - 03.00.00 Biologiya fanlari
  - 09.00.00 Falsafa fanlari
  - 10.00.00 Filologiya fanlari
  - 11.00.00 Geografiya fanlari



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2026. №6(7)**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzirimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.